

## O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022-yil yanvar-mart)

### 1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi YalIM hajmi joriy narxlarda **162 784,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan **5,8 %** ga o'sdi.

YalIMning o'sishiga sanoat tarmog'i eng katta hissa qo'shdi, u **5,7 %** ga o'sdi. Sanoat tarmog'inining o'sishi hisobiga YalIMning **1,7 f.p.** ga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **6,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'inining YalIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,4 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **6,9 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **8,6 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **14,4 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **4,5 %** ga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasining YalIM o'sishiga ijobiy hissasi **2,9 f.p.** ni tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **2,8 %** ni tashkil etdi va YalIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,3 f.p.** ni tashkil etdi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **5,5** foizga o'sdi va YalIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,5 f.p.** ni tashkil etdi.

### 2. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-mart oylarida respublika korxonalarini tomonidan **114,0** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi **105,7** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiyligi hajmida qayta ishlash sanoatining ulushi **80,5** foizni, tog' – kon sanoati va tosh qazish ishlari **10,8** foizni, elektr ta'minoti, gaz, bug' va havoni tozalash **8,1** foizni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish **0,6** foizni ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,9** foizga, shuningdek elektr ta'minoti, gaz, bug' va havoni tozalash korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **15,5** foizga ko'payishi bo'ldi.

Shu bilan birga, tog' - kon sanoati va qazib olish korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 foizga o'sishga erishilgan bo'lsa, suv ta'minoti, gaz, bug' va chiqindilarni tozalash korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **17,2** foizga kamayish kuzatildi.

Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqaradigan korxonalarda (2021 yil yanvar-mart oylarida nisbatan **171,4 %**) va asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaradigan korxonalarda (**193,5 %**) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir

ko'rsatdi. Shu bilan birga, boshqa noruda mineral mahsulotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **97,9** %), kimyo mahsulotlari (**85,1** %), koks va qayta ishlangan neft mahsulotlari (**77,6** %) ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish pasayish kuzatilmogda.

Tog'- kon sanoati va qazib olishda , ko'mir qazib olish (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **109,4** %) va metall rudalari (**114,5** %) o'sishi kuzatilmogda.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan iste'mol tovarlarining o'sish sur'ati **124,0** % ni tashkil etdi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiyligi hajmidagi ulushi **31,8** % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **32,9** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **67,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021-yilning mos davriga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati **107,1** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari **134,4** foizni tashkil etdi.

### **3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

2022-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **33 474,3** mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan **102,8%** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **31 701,6** mlrd. so'mni (102,9%), o'rmon xo'jaligida – **1 479,3** mlrd. so'mni (101,9%), baliqchilik xo'jaligida – **293,4** mlrd. so'mni (102,1%) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (**2,9**%) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – **2,7** % ga, sutning – **2,2** % ga, sabzavotlarning – **17,5** % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining **88,4%** - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, **7,1%** - fermer xo'jaliklari, **4,5%** - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### **4. Inflyatsiya darajasi**

2022-yilning yanvar-mart oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **2,9** % ni tashkil etdi.

2022-yilning I choragi davomida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari o'rtacha **4,4** % ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiyligi o'sish sur'atiga 1,84 foiz darajasida (keyingi o'rnlarda f.d.) ta'sir etdi. **Nooziq-ovqat mahsulotlari** narxlari ushbu davrda **2,1** % ga qimmatlashib umumiyligi ko'rsatkichning 0,74 f.d. o'sish sur'atini, **xizmatlar** esa **1,5** % ga qimmatlashib, umumiyligi ko'rsatkichni qo'shimcha 0,35 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiyligi o'sish sur'atinig **62,8** %i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga **25,3** %i va xizmatlar hissasiga **11,9** %i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'sin yaqqol namoyon bo'ldi. **Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar** narxlarining oshishi hisobiga 2022-yilning I choragida INI 1,77 f.d. yuqoriladi. Salmoq ko'rsatkichlarida ushbu tovarlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 60,4 %i to'g'ri keldi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida **oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar** o'rtacha **4,4 %ga** qimmatlashdi. Shu bilan birga, ushbu guruh tovarlari orasida meva-sabzavot mahsulotlari yuqori ustunlik bilan yetakchilik qilmoqda. Shunday qilib, joriy yilning I choragida mevlar va yong'oqlar narxlari **7,7 %ga**, sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar **18,6 % ga** qimmatlashdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (**4,1 %**), sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (**3,1 %**), uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy-joylarni joriy ta'mirlash xizmatlari hamda dam olish, sport va madaniyat (**2,9 % dan**) sohasida qayd etildi.

## **5. Asosiy kapitalga investitsiyalar**

2022-yilning yanvar-mart oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **50060,7 mlrd.so'mni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,3 foizni** tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **29,4 %ni**, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **3,0%**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar **11,0%**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar **43,2%**, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **15,9%**, aholi mablag'lari - **9,5%**, Respublika budgeti – **6,9%**, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi - **0,3%**, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi – **0,6%**.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari moliyalashtirishning asosiy manbalari: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – 2021 yilning mos davriga nisbatan - **219,9 %**; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – **156,5%**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **167,9%**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **115,4%**, aholi mablag'lari – **96,6 %**, Respublika budgeti – **95,1%**.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **61,6%**, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – **25,1%** kuzatildi.

## **6. Qurilish ishlari**

2022-yilning yanvar-mart oylarida **24071,6 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **106,3 %ni** tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining **5649,0 mlrd. so'm** yoki **23,5%** yirik korxona va tashkilotlar, kichik

korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 14108,6 mlrd. so‘m yoki 58,6 %, norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan 4314,0 mlrd.so‘m yoki 17,9% bajarildi.

## **7. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2022-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **59 057,3** mlrd. so‘mni tashkil etib,o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **10,8 %** ga o‘sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **54,2 %** ga o‘sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **23,7 %** ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2,0 %** ga ko‘paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **76,3 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 8,9 % ulush bilan **5 283,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## **8. Tashqi savdo aylanmasi**

2022-yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **13 155,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **5 630,0** mln. AQSh dollariga yoki **74,8 %** ga ko‘paydi.

Jumladan, eksport hajmi **5 772,7** mln. AQSh dollariga (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4 b.** ga o‘sish) va import **7 383,1** mln. AQSh dollariga (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **44,6 %** ga o‘sdi) oshdi.

Eksport tarkibida ham o‘sish kuzatildi, jumladan: Xayvonlar va usimliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan-**6,0 b.** (4,7 mln. AQSh doll gacha), ichimliklar va tamaki- **50,4 %** (3,4 mln. AQSh doll), turli xil tayyor buyumlar - **22,6 % ga** (39,1 mln. AQSh doll), oziq-ovqat maxsulotlari va tirik xayvonlar-**23,2 %** (53,0 mln. AQSh doll), shuningdek sanoat tovarlari **19,9 %** ga (182,0 mln. AQSh doll).

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunlari- **34,6 %** (**2 555,8** mln. AQSh dollar), sanoat tovarlari - **18,4 %** (**1360,4** mln. AQSh doll), kimyoiy vositalar va boshka toifalarga kiritilmagan shunga uxshash maxsulotlar- **13,6 %** (1 004,2 mln. AQSh dollari) to‘g‘ri keladi.

## **9. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari**

2022-yilning yanvar-mart oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **73,8** trln. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **15,9 %** ga o‘sdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘sishida moliyaviy xizmatlarning **37,6 %** ga (ko‘rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o‘sishidagi ta’siri 8,3 punkt), transport xizmatlari **11,6 %ga** (o‘sishdagi ta’siri 2,6 punkt), savdo xizmatlari **8,6 % ga** (o‘sishdagi ta’siri 2,2 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **27,8 %ga** (o‘sishdagi ta’siri 1,7 punkt), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar **11,4 % ga** (o‘sishdagi ta’siri 0,3 punkt) o‘sishi ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**18,6** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**18,2** trln.so'm, **137,6 %**) va transport xizmatlari (**15,4** trln.so'm, **111,6 %**)ga to'g'ri keladi.

## **10. Korxona va tashkilotlar soni**

2022-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **542,7** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 475,5 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 9,8 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 10,9 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (19,4 foiz), Qashqadaryo (13,5 foiz), Xorazm (12,5 foiz), Navoiy (11,8 foiz), Surxondaryo (10,3 foiz), Andijon (10,0 foiz), Farg'ona (9,8 foiz), Jizzax (8,5 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (8,2 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (15,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (13,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12,7 foiz), axborot va aloqa (10,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (8,5 foiz), sanoat (7,6 foiz), qurilish (6,8 foiz) hamda tashish va saqlash (6,6 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022 yil yanvar-mart oyida respublikada 25,0 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24,0 mingtani tashkil etdi.

2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 13 656 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 11,6 % ni yoki 1 417 tani tashkil etdi. Ulardan 6 082 tasi qo'shma korxonalarni va 7 574 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.